



## FEYK INFORMATSIYALARNING TARQALISH SABABLARI VA OLDINI OLISH MASALALARI

**Yunusaliyeva Shohista Qodirovna**

*Respublika ma'naviyat va ma'rifat*

*markazi yetakchi mataxassisi*

*O'zMU mustaqil tadqiqotchisi*

[Shahobova92@list.ru](mailto:Shahobova92@list.ru)

(99)088-27-92

*Axborot asrida feyk yangiliklarning tarqalishi odatiy holga aylandi. Ular asosan siyosiy, iqtisodiy, shou-biznesga aloqador mavzularni qamrab olmoqda. Aynan shu sohaga aloqador feyk yangiliklar boshqalaridan salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi, g'azab, tashvish, qo'rquv, nafrat uyg'onishiga sabab bo'lishi bilan farq qiladi. Ayniqsa ularning juda katta tezlikda va takror aylanishi xuddi haqiqatdek jamiyat hayotini qamrab olmoqda. Shu nuqtai nazardan bu kabi axborotlarning tarqalishini oldini olish yoki ularga nisbatan shubhali munosabatda bo'lib dastavval tekshirib ko'rish ko'nikmasini shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu maqolada axborotning noto'g'ri ya'ni feyk ekanligini o'rganish usullari tadqiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** feyk, faktcheking, belling-cat, jurnalist surishtiruvlari, javobgarlik

## ПРИЧИНЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ФЕЙКОВОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРОБЛЕМЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

**Аннотация:** В информационный век распространение фейковых новостей стало обычным делом. В основном они освещают темы, связанные с политикой, экономикой и шоу-бизнесом. Фейковые новости, связанные с этой сферой, отличаются от других тем, что вызывают негативные эмоции, гнев, тревогу, страх и ненависть. Особенно их очень высокая скорость и повторение охватывают жизнь общества так, как если бы она была реальностью. С этой точки зрения необходимо развивать способность предотвращать распространение такой информации или предварительно проверять ее при подозрительном отношении к ней. В данной статье изучаются способы узнать, является ли информация ложной или фейковой.

**Ключевые слова:** фейк, фактчекинг, беллинг-кэт, журналистские расследования, ответственность.

## CAUSES OF THE SPREAD OF FAKE INFORMATION AND PROBLEMS OF PREVENTION



**Abstract:** In the information age, the spread of fake news has become commonplace. They mainly cover topics related to politics, economics and show business. Fake news related to this area is different from others in that it causes negative emotions, anger, anxiety, fear and hatred. Especially their very high speed and repetition embrace the life of society as if it were a reality. From this point of view, it is necessary to develop the ability to prevent the dissemination of such information or to pre-screen it if it is suspicious. This article explores ways to find out if information is false or fake.

**Key words:** fake, fact-checking, belling-cat, journalistic inquiries, responsibility

**Kirish:** Auditoriyaning yangi axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish verifikatsiya – tarqatilgan axborotning ishonchligini tasdiqlash yoki unga raddiya berish orqali uni tekshirish jarayonining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu sohaga ixtisoslashgan jurnalist va ekspertlar faktchekerlar deb ataladi. Qoidaga ko'ra, faktchekerlar turli tashkilot va jamoatchilikning ko'p sonli tasdig'i orqali tekshirish o'tkazadi. Soha mutaxassislari o'rtasida tajriba almashish maqsadida 2015 yilda Xalqaro faktcheking tarmog'i (International factchecking network — IFCN) tashkil etilgan. Hozirgi kunda bu tarmoq 49 mamlakatdagi faktcheking bo'yicha faoliyat yuritadigan 126 tashkilotni o'zida jamlagan. Uning maqsadi faktcheking bo'yicha eng so'nggi trendlarni monitoring qilish va OAVdagi eng yaxshi amaliyot hamda IFCNning prinsiplar kodeksidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. [1]

#### **Adabiyotlar tahlili- (Literature review)**

Raspopova S. S., Bogdan Ye. N. "Feykovie novosti, Informatsionnaya mistifikatsiya" nomli ilmiy risolasida feyk xabarlarining kelib chiqishi, turlari va klasifikatsiyasi va jamiyat hayoti hamda davlat siyostiga ta'siri borasida fikrlar ilgari surilgan. Feyk tarqatuvchilarning ba'zilari bu orqali piar yaratmoqchi bo'lsa, ba'zilari kimlarnidir obro'sizlantirishni, aholi o'rtasida vahima uyg'otishni, turli bo'htonlar tarqatib, davlat hokimiyati organlari obro'sini to'kishni maqsad qilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Internetda, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda har kuni millionlab yolg'on xabarlar tarqatiladi. Ularning oqibatlarini ham turlicha. Ba'zilari hech qanday ahamiyatga ega bo'lmasa, ba'zilari esa ishonarliligi bilan kishini shoshiltiradi- deydi Nurbek Toshkanov o'zining <https://tashabbus.org/fake-news/> saytidagi maqolasida. Shuningdek, Sitara Xolmatova "Faktcheking — axborotni verifikatsiya qilishning samarali vositasi sifatida" nomli maqolasida "Bizning fikrimizcha, faktlarni xolis va mustaqil ravishda tekshirish jurnalistikaning eng kuchli instrumentlaridan hisoblanadi. Faktlarni tekshirishda xolis bo'lmagan va aniq manbaga asoslanmaganlarini berish OAV va ekspertlarga bo'lgan ishonchsizlikni orttiradi."

degan fikri ilgari suradi. O'rganilgan tadqiqot ishlari o'laroq mamlakatimizda faktcheking kompaniyalar rolini yanada oshirish kerak.

#### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**



Faktchekerlar muammosi haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, ular allaqachon "zararlangan" axborot oqimi izlari bo'ylab ishlaydi, feyklarning oshkor qilinishi dezinformatsiya asosida paydo bo'lgan tushunchalarni o'zgartirishga qodir emas. Bu xulosa "Psychological Science" nashri tomonidan "Dezinformatsiyani rad qiluvchi psixologik meta-analiz" nomi ostida chop qilingan ilmiy tadqiqot natijasiga asoslangan. Qiyinchilik tug'diradigan jihati shundaki, onlayn ravishda tarqalgan feyklarni to'g'rilash yetarli emasdek ko'rinadi, sababi auditoriya aynan to'g'rilangan, haqiqiy axborotga ishonishi qiyinlashadi. "The Guardian" nashrining sotsial va yangi medialar muharriri Martin Belamning qayd etishicha, "bunga chek qo'yish uchun faktcheking o'z-o'zi uchun yetarli emas, biz haqiqatni tarqatishda qaysi yo'l samarali ekanini hal qilib olishimiz darkor". [2] Xalqaro qidiruv tizimi Google esa dunyoning bir qancha nufuzli tahririyatlari hamkorligida eng muhim xabarlar yuzasidan verifikatsiya o'tkazadi. Masalan, qidiruv tizimiga "Xillari Klinton Rossiyaga uran sotdi" so'rovi kiritilsa, "PolitiFact, Snopes va The Washington Post" kabi eng kamida uchta tahririyat orqali tekshirilib, "bu yolg'on yoki bu kabi kelishuv bo'lmagan" belgisi bilan belgilangan xabarlarni chiqaradi.


Umuman olganda, bugungi kunda faktlarni professional tekshirish faktchekingga ixtisoslashgan tashkilot ekspertlari va turli sifatli media jurnalistlari tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Facebook va Twitter ijtimoiy tarmoqlari, Google qidiruv tizimi feyk xabarlar va ularni belgilashda alohida o'z filtr tizimiga ega. Bizning fikrimizcha, xalqaro miqyosdagi mediasavodxonlik bo'yicha loyihalar ham mass-mediaaning "ongli iste'molchilari"ni shakllantirishga, feyk yangiliklarni mustaqil ravishda ajratib olish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Axborot globallashuv asrida asosan ijtimoiy tarmoqlar, turli saytlar va ayrim OAV ro'yxatida bo'lgan internet nashrlarda ham turli shov shuvli xabarlarni uchratamiz. Saytlarning bu xildagi ma'lumotlarni tarqatishdan asosiy maqsad albatta auditoriyasini (obunachilarini) kengaytirish hisoblanadi. Ayrim auditoriya esa ularning asosiysini manbaning ishonchli yoki rasmiy yoki norasmiy ekaniga e'tabor qaratmaydi. Natijada esa yo'lg'on axborotlar ularning chinidan ko'ra ko'proq tarqalib ulgiradi. Alaloqibat turli noxush holatlarni keltirib chiqadi. Masalan,

Ijtimoiy ta'minot vazirligining mamlakatdagi demografik vaziyatni yaxshilash to'g'risidagi qarori munosabati bilan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev har bir bolali oilaga 650 000 so'm miqdorida to'lov bepish to'g'risidagi farmoni imzoladi. <https://uz-mixk.shop/president/cash19516363>

- 1.O'zbekistonda Ijtimoiy ta'minot vazirligi deb nomlangan vazirlik mavjud emas
  - 2.Manbaa linki esa xavflilikdan ogohlantiryapti (1-rasm)
  - 3 Sayt AQSH domeni ro'yxatidan o'tgan (2-rasm)
  - 4.To'lov aynan aholining qaysi qatlamiga berilishi ham aniq yozilmagan
- Aynan qanday aholi qatlamlariga tarqatilishi aytilmagan.



1-rasm

2-rasm

Feyk ma'lumotlarni tarqatishning asosiy maqsadi – e'tiborni jalb qilish, odamlarni yolg'onga ishonitirishga, jamiyatda amaldagi hukumatga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishga va mamlakatda beqarorlikni keltirib chiqarishdan iborat.

Yana bir soddaroq misol. Ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda biror mahsulotning narxi bexosdan ko'tarilib ketgani haqidagi feyk xabarlar tarqaladi. Bu odatda biznes egalari – tadbirkorlar tarafidan tashkillanadi. Hech narsadan xabari yo'q oddiy odamlar esa narx oshgani haqidagi xabarni tekshirib o'tirmasdan yaqinlariga, tanishlariga tarqataverishadi. Oqibatda kecha 100 so'm bo'lgan mahsulot narxi bugun 500 so'mga chiqadi. Aholi esa davlatdan noroziligicha qolaveradi. Davlat narxni nazoratga oladi va barqarorlashtiradi. Biroq narx bari bir avvalgi holiga qaytmaydi. 500 so'mga chiqib borgan mahsulot davlat nazorati bilan endi 300 so'mdan sotila boshlaydi. Ammo uning asl bahosi 100 so'm edi. Xo'sh unda qachon yolg'on axborotlardan aziyat chikiladi. Qachonki, mediasavodxonlik rivojlansa.

Fake News shunchaki trendga chiqqan navbatdagi mashhur so'z emas. U allaqachon o'zing salbiy oqibatlarini ko'rsatgan hodisadir. Hukumat va tadbirkorlar feyk (qasddan yoki tasodif) yangiliklardan millionlab dollar yo'qotishadi — ammo bunday xabarlarni yaratish narxi taxminan bir xil. Bizda faqatgina bir savol qoladi — Davlatlar fake news bozoriga aralashib, ularni tartibga solishi kerakmi yoki ularning mavjudligi so'z erkinligining bahosimi? [3] Faktchekingda birinchi axborot manbasi va ekspertlarni o'z ichiga olgan faktlarni tekshirishning standart ko'rinishida tayyor materialni tasdiqlash yoki unga raddiya berishdagi tahrir qilishning 3 muhim bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

- kontekstga moslikni tekshirish;
- uslub va grammatikani tekshirish;
- ishonchlilik darajasini tekshirish va keltirilgan faktlarni dalillash.

Bugunga qadar xalqaro miqyosda fakt-cheking kompaniyalari, turli jamoat tashkilotlari, ekspertlar guruhi faoliyat ko'rsatib keladi.



Jumladan, Xalqaro ekspert-jurnalistlar surishtiruv guruhi “Belling cat” 68 boshqa faktchekarlardan farqli o'laroq, soha mutaxassislarini emas, balki fuqarolik jurnalistikasi vakillarini hamkorlikka chorlaydi. Mazkur faktcheking platformasi kraudsorsing texnologiyasi asosida faoliyat olib boriishi bilan boshqa faktcheking platformalaridan farq qiladi. Guruh asoschisi britaniyalik Eliot Xigginsning fikricha, har kim jurnalist bo'lishi mumkin. “Belling cat” ekspertlari foto, videomateriallarni verifikatsiyalash va identifikatsiyalash hamda jinoyat sodir etilgan yerdagi ziddiyatlarni o'rganishda geolokatsiyani aniqlash uchun YouTube, GoogleMaps, Reddit kabi ochiq manbalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Sayt o'z surishtiruv metodlariga ega: ijtimoiy tarmoqlardagi har bir foydalanuvchiga videomateriallarni verifikatsiya qilish va botlar (feyk akkauntlar)ni aniqlash yuzasidan kengaytirilgan qo'llanma taqdim etiladi.[4]

Xorijiy analoglar asosida ishlab chiqilgan Rossiyaning “Faktograf” loyihasi mamlakatdagi eng mashhur faktcheking platformasi (2017 yilning 18-sentyabridan faoliyatini boshlagan) hisoblanadi. Mazkur platformada rasmiy doira vakillari fikr-mulohazalarining ishonchlilik darajasini belgilash uchun ranglar shkalasidan foydalaniladi: yashil – haqiqat, ko'k – noto'g'ri, sariq – fakt emas, olovrang – shubhali, qizil – hoynahoy yolg'on. Bu amaliyot nafaqat OAV vakillari, balki auditoriyada ham faktlarni tekshirish jarayonida ishtirok etishiga yordam beradi. [5] O'zbekistonda aynan faktcheking bilan shug'ulladigan alohida internet nashr mavjud bo'lmasada, bu faoliyat bilan qisman shug'ullanuvchi nashrlarni keltirib o'tishimiz o'rinlidir. Jumladan, kun.uz, daryo.uz, xabar.uz, repost.uz, sangzor.uz kabi yetakchi internet nashrlar ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan hamda mavzu doirasida eng ko'p muhokamaga sabab bo'layotgan mavzularni tezlikda qayta ishlab, birinchi axborot manbasi bilan bog'lanib, vaziyatni oydinlashtirgan holda auditoriyaga qayta uzatmoqda. Mazkur internet nashrlarda faktcheking elementlari mavjud bo'lib, bu — nashrlar faoliyatining bir qismini tashkil etmoqda. Masalan, sangzor.uz dagi faktchekinglardan birini misol sifatida ko'rsatish mumkin.

2023-yil 10-fevral kuni Feysbuk ijtimoiy tarmog'idagi “Krasota vokrug” sahifasida “Anorbank” tomonidan 50 million so'mgacha passport va kafilsiz mikroqarz berilishi haqida xabar tarqalgan. Endi uning feyk ekanligiga asoslar ko'rsatamiz.

1) O'zbek auditoriyasi uchun joylashtirilgan ushbu ma'lumot muallifi ham o'zbek foydalanuvchisi emas. Ya'ni qandaydir “Elsie-May Matthams” logini orqali ma'lumot joylashtirilgan. Bundan tashqari ushbu post osti dagi foydalanuvchilar qoldirgan izohlar ham tarjimon instrumentlaridan foydalanilgan va xorijiy fuqarolar ism sharifi orqali qoldirilganligini ko'rish mumkin.

2) 24ipaka.com sayti domen va IP lar haqidagi Whois rasmiy servisi orqali o'rganilgandi domen 2023 yil 31 yanvar kuni ro'yxatdan o'tganligi ma'lum bo'ldi. Bunda n tashqari sayt tashrif buyuruvchilarning ma'lumotlarini yig'adigan kuki fayllarni to'pl aydi.

3) Yana bir jihat, telefon raqami ham butunlay boshqa tashkilot Buxoro viloyatida joylashgan "Uzkabel"ga tegishli ekanligidir.

4) 67 Nukus ko'chasi, Toshkent 100015, O'zbekiston manzilida esa "Asakabank" ATB ning bosh ofisi joylashganini ko'rish mumkin. So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoq va telegram messenjeri orqali turli xil miqdordagi pul mablag'lari ajratilayotganligi yuzasidan ma'lumotlar ko'pchilikka SMS yoki messenjerlardagi xabarlar orqali kelib turadi. Ularning ko'pchiligi firibgarlar tomonidan tayyorlanadi va ko'p hollarda sodda insonlarning aldanib qolib, plastik kartalaridagi mablag'laridan ajralib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin.

5) Mazkur havola "Anorbank" jamoasiga tegishliliigi bo'yicha so'rov yuborilganida, ular ushbu sahifa va reklama ularga tegishli emasligi haqida ma'lum qildilar.



### **Taklif va xulosalar (Conclusion/Recommendations)**

Tarqalayotgan xabarlarining qanchalik to'g'ri yoki uning aksi ekanini aniqlash uchun yuqorida aytilganidek, faktcheking kompaniyalari, jurnalist va blogerlarning bir guruhi ishlamoqda. Muammo esa aynan feyk tarqatayotgan manbaga munosib javobgarlik tayinlash. Xalqaro tajribada allaqachon bu jarayonlar amalda ekanini ko'rish mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Federatsiya Kengashining quyi palatasi – Davlat Dumasi tomonidan ham 2019-yil yanvaridan boshlab yolg'on xabarga qarshi kurashish maqsadida "Axborot, axborot texnologiyalari va axborot himoyasi to'g'risida"gi va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Federal qonunlarga o'zgartirishlar kiritish ustida ishlanmoqda. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi ham. 2019-yil 13-mart kuni Rossiya Federatsiya Kengashi yolg'on xabarlar tarqatgan resurslarni bloklash va jazolash ko'zda tutilgan qonun loyihasini ma'qulladi.

Yoki bo'lmasa Germaniyada "Internet" Jahon axborot tarmog'ida yolg'on xabar tarqalishiga qarshi kurashishga qaratilgan "Tarmoqda qonuniylik to'g'risida"gi Qonun (NetzDG) qabul qilingan. Qonunga ko'ra internet-manbalar foydalanuvchilarning shikoyatlariga, shu jumladan, yolg'on xabar masalalari bo'yicha murojaatlarga munosabat bildirishi shart. Kimki shikoyatni ko'rib chiqishni rad etsa va tegishli chora ko'rmasa, 50 mln yevrogacha jarima bilan jazolanadi. Bunda subyektning jismoniy yoki



yuridik shaxs bo'lishi ahamiyatga ega emas. [6] Amalda mamlakatimizda yolg'on axborotlarni tarqatishga qarshi quyidagicha holat mavjud:

a) o'zini bechorahol, og'ir bemor sifatida yoki shunday turdagi bemorlarni davolovchi, yaxshi odamlarning xayr-ehsoni hisobiga boyishni maqsad qilgan shaxslarni insonlarning ishonchini suiiste'mol qilib, boylik orttirishni maqsad qilganidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi 168-moddasida belgilangan firibgarlik jinoyati bilan kvalifikatsiya qilish mumkin;

b) kishilar o'rtasida vahima va qo'rquv kayfiyatini uyg'otish maqsadida terrorchilik akti sodir etilganligi to'g'risida noto'g'ri xabar berganlik Jinoyat kodeksi 237-moddasida belgilangan yolg'on xabar berish jinoyati bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

c) Bundan tashqari Internet tarmog'ida kishilarni o'ziga jalb qilish, boylik orttirish maqsadida og'ir kasalliklarni davolovchi dorilarni ixtiro qilganligi yoki shunday kasalni davolashini aytib yolg'on axborot berishni JK 168-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish imkoni mavjud. Mobil aloqa vositasi orqali yolg'on xabar tarqatish holatlari uchrab turishini inobatga olib, buni ham ushbu modda bilan qamrab olish mumkin. [7]

Biz taklif qilmoqchi bo'lgan masalalar esa aynan feykning aholi o'rtasida yuzaga keldigan turli mish mishlar va talatoplarni, vahima va qo'rquvlarni oldini olishga qaratilgan. Jumladan:

✓ aholi o'rtasida turli shov shuvlar bilan vahima, qo'rquv va davlatga qarshi norozilik kayfiyatini uyg'otish maqsadida halokatlar (tabiiy yoki boshqa turdagi) haqida yolg'on axborot tarqatish;

✓ vahima uyg'otish uchun aslida sodir bo'lgan fojialar haqida noto'g'ri va tasdiqlanmagan xabarlar tarqatish;

✓ aslida sodir bo'lgan voqea hodisaga aloqador bo'lmagan shaxslar (ko'pincha amaldorlar) haqida feyk ma'lumotlar tarqatishga qaratilgan xabarlar uchun javobgarlik masalalarini qonunchilikda ko'rib chiqish vaqti keldi.

Internet OAVda va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan har qanday ma'lumotga ishonib uni tarqatish oqibatida turli ko'ngilsizliklar, ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Ishonchsiz va to'liq bo'lmagan, tasdiqlanmagan, norasmiy ma'lumotlarning urchishi zamonaviy media oldidagi yangi muammo – fuqarolik jurnalistikasining yetarlicha shakllanmaganligida deb o'ylayman. Sohada akademik ta'lim olmay turib, blogger sifatida omma orasida OAVga va mutaxassislarga nisbatan ishonchsizlikni uyg'otayotgan fuqarolar faoliyatini ham aynan qonun bilan tartibga solish maqsadga muvofiq. Shundagina biz feyklarning tarqalishi va jamiyat hayotiga yetkaziladigan zararni bir muncha kamaytirishga erishishimiz mumkin.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raspopova S. S., Bogdan Ye. N. Feykovie novosti, Informatsionnaya mistifikatsiya. — M: Aspekt Press, 2018. C. 94
2. <https://www.theguardian.com/international> (Elektron manba. Murojaat vaqti 10.04.2023 )
3. <https://www.factcheck.org/> (Elektron manba. Murojaat vaqti 25.01.2023 )
4. Xolmatova S.B. Faktcheking — axborotni verifikatsiya qilishning samarali vositasi sifatida // Molodoy ucheniy. — 2020. — № 4 (294). — s. 495-497. — URL: <https://moluch.ru/archive/294/66733/> (elektron manba murojaat vaqti: 30.05.2023).
5. [https://tashabbus.org/fake-news/Nurbek Toshkanov](https://tashabbus.org/fake-news/Nurbek_Toshkanov). Sud-huquq sohasidagi qonunchilikni o'rganish bo'limi katta maslahatchisi. (Elektron manba. Murojaat vaqti 05.05.2023 )
6. <https://lex.uz/acts/111453> (Elektron manba. Murojaat vaqti 02.03.2023 )